



ZOOSEMIZMLARNING TURLARI VA VAZIFALARI

U.S.Toirova

BuxDU Ingliz tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi

u.s.toirova@bux.du.

Kirish

Zoosemizmlarning hayvon nomi orqali inson xarakter xususiyatlarini majoziy ma'noda ochib beruvchi termin ekanligi borasidagi fikrlarimizni mazkur faslda davom ettirib, xonaki va yovvoyi hayvon nomlarining insonga nisbatan til va nutqda shakllanishini ko'rib chiqamiz.

E.Jaffning fikriga ko'ra, ramzlar lug'atida, it birinchi xonakilashtirilgan hayvon bo'lib, ramziy ma'noda sodiqlik va hushyorlik bilan bog'liq. It qo'riqchi, himoyachi, yo'lboshchi, hamroh sifatida tasvirlanib, "insonning eng yaxshi do'sti" sifatida ham tan olinadi. Bundan tashqari, it iste'dod va ayyorlik semalari bilan bog'lanadi, chunki ularni turli ishlarni bajarishga o'rgatish mumkin. Ba'zan salbiy xususiyat kasb etib, dushmanga nisbatan epitet va la'nat obyekt, nafrat manbai sifatida ishlatiladi. Masalan, "itdek kasal" iborasi itning o'zi qayt qilgan joyiga qaytib kelishini anglatadi.

Asosiy qism

Zoosemizmlar o'z turkum doirasida bir necha guruhlarga bo'linadi.

1. *Bovidae* – ho'kiz, qo'y, kiyik turkumidagi zoosemizmlar quyidagi majoziy ma'nolarda qo'llaniladi: ¹

- heifer – xotin, har qanday ayol yoki qizga ishora;
- bull – Amerika jargonida polisiyachi;

¹ Kiełtyka R. and Kleparski G.A. The ups and downs of the Great Chain of Being: The case of canine zoosemy in the history of English. – Slovakia: SKASE Journal of Theoretical Linguistics, 2005. – P.26



- bullock – Avstraliyada vatandosh yoki dushman;
- maverick – daydi; tevarak atrofda yuradigan kishi; mustaqil shaxs; individualist; AQShda siyosiy partiyaga aloqasi bo‘lmagan oddiy siyosatchi;
- buckdeer – quvnoq, dadil yigit;
- calf – ahmoq, ba’zan yumshoq, tajovuzkor kishi;
- cattle – qullar;
- ox – ahmoq;
- sheep – ahmoq, qo‘rqoq yoki yomon niyatli kishi;
- ram – agressiv kishi, amaldor erkak;
- lamb – qo‘zidek yuvosh, muloyim, begunoh yoki zaif;
- goat – ahmoq; yosh bola.

2. *Suidae* cho‘chqa turkumiga oid hayvonlar bo‘lib, cho‘chqaga xos o‘jarlik, ochko‘zlik, yomonlik, ifloslik, jirkanchlik ma’nosida ishlatiladi. Cho‘chqa XIX asrda politsiya xodimlarini ifodalagan.

- gilt – o‘g‘ri;
- pig – tanazzulga uchragan, qo‘pol odam; xo‘rlash yoki suiste‘mol qilish;
- hog – qo‘pol, ochko‘z yoki iflos odam;
- poke – madaniyatsiz;
- sow – semiz, qo‘pol yoki dangasa ayol;
- shoar – bekorchi, qadri yo‘q kishi.

3. *Equidae* turkumiga oid zoosemizmlar asosan ot va eshak hayvonlarida qo‘llanilgan, jumladan, *nag* XIV asrda ingliz leksikasida paydo bo‘lib, dastlab miniladigan kichik ot yoki ponini, keyinroq esa pastroq, nosog‘lom otni bildirgan. XVI asrda ayollarga nisbatan qo‘llaniladigan zo‘ravonlik termini bo‘lib qolgan:

- donkey– ahmoq va kaltafahm;
- ass – tanbeh sifatida nodon yigit, buzuv ahmoq, mag‘rur;
- cuddie – ahmoq odam;
- mule – ahmoq yoki qaysar.



4. *Canidae* turkumi yirtqich hayvonlarni o‘z ichiga oladi. It turkumiga tegishli terminlarning kichik guruhi bilan ifodalanadi, ulardan quyidagi leksik birikmalar majoziy ma’noda ishlatiladi:

- dog – qadrsiz, nafratli, sokin yoki qo‘rqoq;
- whelp – ikki jinsli yosh bola;
- cur – qo‘pol, tarbiyasiz, pastkash yoki qo‘rqoq;
- mongrel – nafratlanish yoki suiste‘mol qilish;
- mute – ahmoq, nodon, beso‘naqay, qo‘pol, qobiliyatsiz yoki shunga o‘xshash kishi; ahmoq; nopok shaxs, o‘rtoq;
- hound – jirkanch, pastkash, ochko‘z yoki mast;
- pup – yosh yoki tajribasiz odam;
- puppy – bekorchi, daydi, befarosat, beadab yigit;
- tyke – kambag‘al, dangasa, qo‘pol, yomon odam;
- houndsfoot – qadrsiz o‘rtoq;
- trundle tail – kamsitilgan kishi, badbaxt;
- dogbolt – bechora va xasis;
- handog – jirkanch yoki kamsitilgan kishi;
- bitch – XI asrda ingliz tiliga kirib keldi, “ayol it” degan ma’noni anglatgan. XV asrning boshlariga kelib, odobsiz, yomon xulqli ayolga nisbatan qo‘llanilgan. Ba’zi ma’lumotlariga ko‘ra, injiq erkak sifatida ham ishlatilgan.

5. *Felidae*² turkumidagi metaforizatsiyalar J.Mills ta’kidlaganidek, mushuk so‘zining kelib chiqishi asrlar davomida ayollar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, o‘ta salbiy ma’noda ifodalangan. Mushuk leksemasi ingliz tiliga XII-XIII asrlarda kirib kelgan. Cat – mushuk kabi tirnaydigan kishidan nafratlanishni anglatgan. XV asrga kelib, bu so‘z axloqsiz, XX asrda g‘iybatchi ayolga nisbatan epitet sifatida

² Grzaśko A. On Zoosemy, Foodsemy and Plantosemy: A Cognitive Approach to Selected Terms of Endearment. – Poland: Studia Anglica Resoviensia, 2017. – P.14.



ishlatilgan. Mushuk jazz bo'yicha mutaxassis yoki uni yaxshi baholovchi shaxsni ham bildiradi:

- alley cat – fohisha (jargon);
- kitten – yosh qizga murojaat shakli;
- puss – ayyor qiz yoki ayol;
- pussycat – jozibali, xushmuomala yoki itoatkor;
- pussy – keksa cho'ri ayol, yigit yoki erkak;
- tabby – keksa qiz: ko'pincha mushukning ma'lum fazilatlarini yarim kulgili

atribut bilan; ba'zan har qanday g'iybat yoki yomon xulq-atvorli ayol g'iybatchi yoki nayrangchiga nisbatan qo'llaniladi; jozibali yosh ayol yoki qiz.

6. *Leporidae* turkumiga oid zoosemizmlar(parrandalar):

- fowl – intizomsiz dengizchi;
- biddy – AQShda irlandiyalik xizmatkor ayol;
- bantam – kichik o'lchamli askarlar batalyoni;
- cock – uyquchilarni uyg'otuvchi, tun qo'riqchisi; diniy vazirlar, rahbar,

hukmron, g'olib;

- cockrail – yosh yigit;
- chicken – yosh ayol, qiz;
- hen – xotin, ayol, samimiy kishi;
- broody – o'ychan; tushkun kayfiyatli kishi, ayolning farzand ko'rish istagi;
- rooster – xabar beruvchi;
- capon – zerikarli erkak yoki amaldor.

7. *Domestic Fowl*³ – uy parrandalari toifasidagi zoosemizmlar. Chicken so'zi ingliz tili lug'atiga X asrda kirib kelgan va faqat XV asrda birinchi marta bolaga nisbatan metafora sifatida ishlatilgan. XVII asrda bu so'z birinchi marta jo'ja kabi qo'rqoq yoki himoyasiz insonga nisbatan qo'llanilgan. XVIII asrning oxirlarida tovuq tajribasiz kishi ma'nosini anglatgan.

³ Lakoff G. More than cool reason. A field guide to poetic metaphor. – Chicago: University of Chicago Press, 1989. – P.25.



8. *Meleagrididae* oilasi faqat parrandalar bolasi bilan ifodalanadi. Ularda faqat bir nechta zoosemik o'zgarishlarni aniqlash mumkin.

- duck – mehribon hamkasb, AQSh jargonida mijoz;
- lambduck – o'z moliyaviy majburiyatlarini bajara olmaydigan inson;
- duckling – mehribon;
- goose – ahmoq;
- gander – zerikarli va nodon;
- gosling – nodon, yosh va tajribasiz;

9. *Apoidea* (hasharotlar) oilasi bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi: Masalan *bee* – yozuvchi, ish bilan band xodim. Hasharotning ijtimoiy xarakteriga ishora qilib, dehqonlarning bir-birining hosilini yig'ish uchun birlashish, *applebee* – ishlaymaydigan, dangasa bekorchi.⁴

Demak, zoosemizmlar nutqda turli davrlarda turlicha nomlanib, vaqt o'tishi bilan ularning tildagi xususiyatlari ham o'zgarib boshlagan. Kundalik hayotimizda zoosemizmlar ishtirok etgan frazeologik birliklar va maqollar ko'p uchraydi. Shu bilan bir qatorda tadqiqotlarda zoosemizm *suidae*, *equidae*, *canidae*, *felidae*, *leporidae*, *domestic fow* (uy parrandalari), *meleagrididae* (parrandalar), *apoidea* (hasharotlar) kabi turkumlariga bo'lib o'rganilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kiełtyka R. and Kleparski G.A. The ups and downs of the Great Chain of Being: The case of canine zoosemy in the history of English. – Slovakia: SKASE Journal of Theoretical Linguistics, 2005. – P.26.
2. Grząśko A. On Zoosemy, Foodsemy and Plantosemy: A Cognitive Approach to Selected Terms of Endearment. – Poland: Studia Anglica Resoviensia, 2017. – P.14

⁴R.Kiełtyka and G.A.Kleparski. The Scope of English Zoosemy: The Case of Domesticated Animals. – Poland Studia Anglica Resoviensia. – №5, 2005. – pp.8-9.



3. Lakoff G. More than cool reason. A field guide to poetic metaphor. – Chicago: University of Chicago Press, 1989. – P.25.
4. R.Kieltika and G.A.Kleparski. The Scope of English Zoosemy: The Case of Domesticated Animals. – Polland Studia Anglica Resoviensia. – №5, 2005. – pp.-9.
5. Hornby A.S. Oxford Advanced Dictionary. – USA: Oxford University Press, 2000. – P.54.